




## **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

*G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi*

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida o'qituvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada o'qituvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Mantiqiy fikr, ijodiy qobiliyat, intellektual salohiyat, ta'lim tizimi, pedagog.

### **KIRISH**

Pedagogik faoliyatning mantiqiylik prinsipiga asoslanishi bu nafaqat oddiygina g'oyalarni nozik ifodalash yoki o'z nuqtai nazariga obyektiv ishonitirish, balki ushbu jarayonda o'quvchilarni o'rganish va ular bilan birgalikda qarorlar qabul qilish demakdir. Agar, ushbu nuqtai nazardan qaralsa, bu xususiyat o'quvchi ishonchni qozonish, o'zaro tushinishga erishish va to'g'ri yondoshuvni izlash, muhim dalillarni taqdim etish va munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Shu jihatdan ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlash bu uning kompetentlik darajasida kasbiy va ijodiy faoliyatida o'quvchilar bilan munosabat o'rnatish, ta'lim jarayonini yaxshi bilish, o'quvchilarni eshitish va ularning manfaatlarini hisobga olgan holda o'zini tutish, hisobdorlikni oshirish, notiqlik san'atida jozibador bo'lish demakdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O'qituvchi o'z o'quvchilari bilan shunday munosabat o'rnatishi kerakki, undan manfaatdorlik barcha uchun tegishli ekanligini ular anglashlari lozim. Shuning uchun o'qituvchi o'z nuqtai nazarini o'quvchilarga ko'rgazmali shaklda, rangba rang, kutilmagan, hayotdan olingan voqealar va misollar asosida tushintirishi va mahoratli usta sifatida uning his tuyg'ularini sezishi unga to'g'ri munosabat bildira olishi muhim hisoblanadi. Bu boshlang'ich sinf yosh toifasidagi o'quvchilarning atrof muhitni tasavvuran va materialistik nuqtai nazaridan anglashlari uchun o'qituvchi tomonidan beriladigan amaliy yordam hisoblanadi. Bunday holatda o'qituvchi o'z aqliy faoliyatini chamalay olishi o'rni kelganda fikrlarni soddalashtirgan holata va ba'zida esa, aksincha ularni real shaklda tashqariga chiqarib berishi kerak.<sup>1</sup>

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga tayyorlash dastavval bo'lajak kadrlar misolida davlat va jamiyat buyurtmasiga hamda talabalarining kasbiy ehtiyojlariga mosligini

<sup>1</sup> Akramov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: Ped.f.n. ... dis. – T.: TDPU, 2016.



ta'minlashda ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini amalga oshirishda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini namoyon qilishiga yordam beradi. Shu bilan birga bu faoliyat jarayonida ularda nazariy yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli, kommunikativ-kognitiv kabi nazariy yondashuvlarni amalga oshirishda uzluksizlik va differensial, modul, o'zaro ta'sir, refleksivlik, ilmiy-metodik kuzatuv tamoyillariga asoslangan holda uning mazmuni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mantiqiy fikrlash asosida o'qituvchi o'quv mazmunini ijtimoiy buyurtma asosida modulli shakllantirish, o'quv materialini o'zlashtirishda loyihalash texnologiyalaridan foydalanish, o'z kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuvni amalga oshirish, ta'lim shakllarini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlaydi.<sup>2</sup>

Shu nuqtai nazardan qaraganda, "O'qituvchi faoliyatidagi eng muhim narsa nima?" degan savolga aynan ushbu jihatning shakllanganligi munosib javob bo'la oladi. Mantiqiylik har bir masalada xususan pedagogic jarayonda ham muhim jihat ekanligi va bunga – o'qituvchilarni o'rgatishning ahamiyati sohada yo'naltirilgan ta'limning ko'zlangan masalalarni aniq hal etishga imkon yaratadi. O'qituvchi ma'lum hayot yo'lini bosib tizimli tarzda ushbu pog'onaga, ya'ni o'rgatish darajasiga yetib kelgan shaxsdir. Ammo o'quvchilarning o'rganishi kerak bo'lgan narsalar, qonuniyatlar esa cheksiz ko'p – eng muhimi, ular hodisa va predmetlarga nisbatan to'g'ri tushunchalarni o'z ongida hosil qila olishi, shaxsiy fikr-mulohazalar, g'oyalarga ega bo'lishi shuningdek mehnatdan qochmaslikka, ongli, samarali, ijodkorona va mas'uliyat bilan mehnat qilishga o'rganishlari lozim. Bugungi kunda o'qituvchilar oldiga qo'yilayotgan talab ham shu: o'quv-tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish, ta'lim, tarbiya bilan bog'liq, rivojlantiruvchi va, albatta, amaliy masalalarni sifatli hamda majmualiy tarzda hal etish zaruratidir. Bularning barchasi o'rgatishga intilish izlanishga undaydi.

O'qituvchi har bir o'quvchisining maksimal darajadagi faolligini, ayniqsa, jadal fikrlay olish qobiliyatini o'stirishni ta'minlovchi ish shakllarini izlashi, yangi ko'rgazmali qurollar yaratish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash yo'lida ish olib borishi shart. Shu tariqa u yangi ish usullari, o'yinlar, juftlikda, guruhlarda faoliyat yuritishdan foydalanish uchun o'quvchilarning hayoti, ularni o'rab turgan real borliq bilan bevosita bog'liq original, qiziqarli vaziyatlarni topishi, o'rgatayotgan fani haqiqatan ham muloqot tili, o'zaro fikr almashish vositasi bo'ladigan shart-sharoitlarni yaratishi joiz. Bu esa dars jarayoniga chuqur o'ylangan, butun usuliy tizimga muvofiq bo'lgan o'zgarishlar kiritilishini talab qiladi. O'qituvchining bu yo'nalishdagi amaliy mehnati o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va ularda shakllangan mantiqiy tafakkur saviyasida o'z natijasini ko'rsatadi va bular uyg'un holatda, chinakam ijodiy faoliyatga aylanib ketishi kerak, shundagina u har ikkala tomonda qoniqish hissini paydo qiladi. Faoliyat orqali biz muayyan maqsadga, natijaga erishishni istaymiz. Shuning uchun o'qituvchilarning shaxsiyatida bu kabi jihatlarni shakllantirish ularning kelgusi faoliyatida obyekt bo'lmish o'quvchilarga ular nimalarga erishganliklarini namoyish etish, o'z yutuqlarini tuyish imkonini berish, shu tariqa keyingi hatti-harakatlarga rag'batlantirish, ularni o'z ishlari va o'rtoqlari faoliyatini nazorat qilishga yordam beradi. Hozirgi kundagi zamonaviy ta'lim sferasida kadrlar tafakkurini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini yaratish va bu yo'nalishdagi aniq maqsadli ishlar turli shakldagi umumlashtirish-takrorlash darslari bilan emas, balki yangicha pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirilishi darkor. Ushbu ishlar hozirgi kunda kadrlar malakasini oshirish va qayta tayorlash institutlarida bajarilishiga qaramay umumiy tahlillar bu tizimning yangi o'zgarishlarga muhtojligini ko'rsatib bermoqda.

<sup>2</sup> Ашуров М.О. Миллий тарбия асослари. – Самарканд: СамДУ, 2014. – Б. 100.



O'qituvchining mahorati va dunyoqarash shakliga qarab o'quvchilar ham kuzatish, anglash, takrorlash, eslab qolish, fikr yuritishga o'rganadilar, shuningdek, birgalikda bajargan ishlaridan quvonadilar, hayratlanadilar, xafa bo'ladilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar, yakun yasaydilar. Bunda o'qituvchining mantiqiy yondashuvi va emotsional holati nihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunki bolalar uning o'zlari bilan birga yashayotgani, ishlayotgani, o'ylayotganini ko'rib turadilar. Xuddi shuningdek, o'quvchilar uyda ham bu ishlarini davom ettirishlari kerak, shunga yarasha uy vazifalari oladilar, aqliy faoliyatning u yoki bu usullarini mashq qildirishni nazarda tutadigan topshiriqlarni bajaradilar. Dars jarayonida o'zlashtirganlarini uyda takrorlashlari tavsiya qilinadi, ularning egallagan bilimlari, orttirgan ko'nikmalari tekshirilib, baholanadi.

Aytish joziki, mantiqiy fikrlashga murabbiylarning metodik o'rgatilishi o'quvchilarda aqliy faoliyat yo'llarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan ishlar samaradorligini sezilarli darajada o'zgartiradi va o'z natijalarini beradi: ular o'zlarini fikr yuritadigan, faol harakat qiladigan shaxs sifatida anglaydilar, o'qish katta iroda kuchini talab qiladigan og'ir mehnat ekanini tushunadilar. Darslar ularni o'ylash, mulohaza yuritish, ongli ravishda mehnat qilish, mantiqiy fikrlash, darsga dastlabki daqiqalardan oq kirishish, tanaffus haqida unutilib, ishlashga o'rgatadi.

## **NATIJALAR**

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bo'lajak kadrlar va amalda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarda mantiqiy tafakkurni shakllantirish metodik jihatdan o'z uslubiy va amaliy xususiyatlariga ega. Chunonchi, o'qituvchilarni mantiqiy-aqliy faoliyat yuritishga o'rgatish jarayonida ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Bu ular o'quvchilarga beradigan vazifalarini mustaqil hal etish yo'llarini izlashlariga o'rgatish uchun ham muhim bo'lib: isbotlash, asoslash, ishontirishga, o'z fikrlarini hayajon bilan obrazli ifodalash, hodisalarni voqelik bilan, o'z hayotiy tajribasi bilan taqqoslash, biror axborot topish, uni tushunish, unga o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bu kompetensiyani yuzaga chiqara olishi shubhasiz ularning keng dunyoqarashini shakllantirishga, shu barobarda ma'naviy sifatlarni tarbiyalashga ham ko'maklashadi.

Amaliyotdan ma'lumki, guruhlarda ishlash bilim darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun foydali bo'lib, ularning fikrlash-so'zlash faoliyatini jadallashtirishning samarali shakllaridan biri sanaladi. U o'qituvchiga har bir o'quvchini faoliyatga jalb etish, ijodiy faolligini oshirish, leksik-grammatik materiallarning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash imkonini beradi, bilim va ko'nikmalar, malakalar darajasini ancha ko'taradi, o'rganilayotgan tilda muloqot qilish uchun sharoit yaratadi. Guruhli ish tarbiyaviy ahamiyatga ham ega: ish yuzasidan o'zaro muomala qilishga, jamoa oldidagi mas'uliyatni his etishga, umumiy ish uchun jon kuydirishga, do'stlar ishonchini oqlashga, ishonchli sherik bo'lishga, qat'iyatlilikka, o'z harakatlarini, o'rtoqlari faoliyatini to'g'ri baholashga, talablarni qabul qilib, ularga bo'ysunishga o'rgatadi. O'qituvchilarning o'zlari bilan bu tajribani amlga oshirish bugungi kunda ham o'z natijasini berib kelmoqda.

## **MUHOKAMA**

O'qituvchilarni guruhlarda ishlashga o'rgatish uchun o'rgatuvchi o'qituvchi ko'pincha ta'lim muassasasida taklif etilgan yoki o'zi ishlab chiqqan o'yin shaklidagi topshiriqlardan foydalanadi. U o'quvchilarni o'z rollariga jiddiy tayyorlanishga, nutq shakli, hajmi, savodxonligiga, uning hissiy jihatlari ahamiyat berishga, o'z "qahramonlari" xulqini aks ettirishga undaydi. Agar o'qituvchi dastlabki paytlarda guruhli ishni tashkil etish uchun juda ko'p ishlasa, keyinroq bular mustaqil tarzda bajariladigan bo'ladi, ularni tashkil etish ekspertlar zimmasiga yuklanadi. Guruhlarda muntazam ishlash o'quvchilarni muloqotli vaziyatlarni mustaqil ravishda tuzishga



o'rgatadi. Odatda, bular tabiiy hayotiy vaziyatlar bo'lib, o'yin jarayonida o'quvchilarning mantiqiy saviyasi va intellektual layoqati namoyon bo'ladi, faolligi oshadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlari zamirida tadqiqotchilik va qisman ijodkorlik jihatlari ham alohida sanab o'tish lozim va bu kompetensiyasi asosiy komponentlarining shakllanganlik mezonini sifatida quyidagilar asoslandi:

- mantiqiylik kompetensiyasini egallashga ijobiy munosabat, tadqiqotchilik faoliyati (kognitiv komponent) sohasiga oid bilimlarni egallash, asosiy yaratuvchilik va onglilik ko'nikmalarini (texnologik komponent) namoyon bo'lishi;
- psixologo-pedagogik tadqiqotlar tahlili asosida mantiqiy fikrlash omillari yoki kompetensiyasi asosiy komponentlarining quyidagi ko'rsatkichlari aniqlandi va asoslandi:
- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari mantiqiy fikrlash qobiliyatining kompetensiya sifatida boshlang'ich ahamiyatini anglash va buni o'zlashtirishga ehtiyoj hamda obyektiv dunyoqarash ko'nikmalarini qo'llash (motivatsion komponent);
- pedagogik faoliyati sohasidagi tabiatning nazariy bilimlar va ularni anglangan holda qo'llanilishi (kognitiv komponent);
- mantiqiy xarakteridagi o'quv-kasbiy topshiriqlarni bajarishda asosiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini mustaqil va muvaffaqiyatli namoyon bo'lishi (texnologik komponent);
- ushbu qobiliyat yoki kompetensiyasi aniqlangan komponentlari, ularning ko'rsatkichlari va ularga mos mezoniy tavsiflar asosida, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida mantiqiy fikrlashning tayyorlash kompetensiyasi shakllanganligi va tafakkurning mantiqiy sayqallanishini boshlang'ich faoliyatidagi ahamiyatini tushunish;
- mantiqiy fikrlashni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi.

Shuningdek, hozirgi vaqtga kelib boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud va bu vazifani bajarish maqsadida interfaol o'qitish metodlarining ("Ilmiy munozara", "Innovatsion loyiha", "Dolzarb muammolar tahlili") pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

Olib borilgan tahlillarga asoslanib boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida shakllantirilishi muhim sanalgan mantiqiy fikrlash kompetensiyasi tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat ekanligi aniqlandi: motivatsion, kognitiv, texnologik (1-jadval). Motivatsion komponent boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining atrof-olamga, borliqqa, kishilarga, o'ziga va o'zining shaxsiy imkoniyatlariga motivatsion-qadriyatli va emotsional-hissiy munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi.

## **XULOSA**

Ushbu sohada olib borilgan ishlar va ilmiy tadqiqotlarni o'rganish davomida quyidagi xususiyatni aniqlash imkoni paydo bo'ldi, ya'ni mantiqiylik omili namoyon bo'lish faqat faoliyat jarayonida yuz berishi mumkinligidan kelib chiqqan holda, kompetensiya va faoliyat tushunchalari o'rtasida uzviy o'zaro aloqa mavjudligi asoslandi va "mantiqiy fikrlash" o'z mazmuniga mos fikr mulohazalarga boy qarama-qarshiliklar va asosiy pedagogic faoliyatida namoyon bo'ladi degan xulosa chiqarildi.

Mantiqiylik kompetensiyasidagi ushbu komponent bilish faolligiga ehtiyojni, kognitiv to'siqlarni bartaraf etishga qobiliyatlikni namoyon etishga, shuningdek nazariy va empirik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda ularning ilmiy faoliyatdagi emotsional munosabatlarini aniqlashga imkon beradi. Kognitiv komponent bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ongida olamning





ilmiy manzarasini shakllantirishni kafolatlaydi, ularni bilish faoliyatiga dialektik yondashuv bilan qurollantiradi. Mantiqiy mulohaza faoliyati uchun bu quyidagi xarakteristikalar va xususiyatlarda o'z aksini topgan:

- ✓ tafakkurning ushbu funksiyasini amalda qo'llay olishi;
- ✓ atrof-olamni his qilish, savollar berish, hodisalarning asoslari va sabablarini qidirish, savol bo'yicha o'z nuqtai nazarini yoki tushunmaganligini bildirish;
- ✓ olingan ma'lumotlarni obdon tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish.

Texnologik komponent mantiqiy fikrlashga oid quyidagi xususiy ko'nikmalarini (mo'ljal ola bilish, muammolilik, maqsadni shakllantirish, rejalashtirish, o'z ustida faoliyat va tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni qidirish va interpretatsiyalash) o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
2. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
3. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
4. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.
5. Ganiyeva, M. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Science and innovation, 3(B5), 178-182.
6. Тумашева О. М “О методической компетентности учителя / Вестник К Г П У им. В.П. Астафьева. Ме тодик а пр е п о даван и я. 2009.
7. Uzoqova L.P. Mahsus fanlarni muammoli o'qitish texnologiyasi. – T.: Fan, 2013. – 144 b.
8. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? – T.:Pedagogika va psixologiya ilmiy-ommabop nashri, 2000. – B.36
9. Витярис Витилиус, Владимирская О.Д. Центр обучения взрослых: новый этап развития. //Организация и управление. 2007. с.21-24.
10. Воронщиков С.Г. Учебно-познавательная компетентность школьников: опыт системного конструирования. // Завуч. Управление современной школой. - №6. – 2007. с. 81-97.
11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: “Tafakkur-bo`stoni” nashriyoti. 2011.
12. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi . -T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005
13. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar.– T.: “Moliya-iqtisod” nashriyoti, 2009.
14. Yo'ldoshev J.G'. Xorijda ta'lim. –T.: Sharq, 1995.



SCIENCE BOX

**BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR**

**ONLAYN ILMIY JURNALI**

**Jild: 04 Nashr: 10 | Oct - 2024 ISSN: 2181-2608**

**[www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz)**



15. Zunnunov A.va boshqalar. Pedagogika tarixi / –T.: Sharq, 2000
16. O‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish | infoCOM.UZ.